O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO‘JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING
ANDIJON VILOYATI
BOSHQARMASI

Andijon viloyati 170100, Andijon Shahri, A.Navoiy shox ko'chasi 30-uy., Tel/Faks: 71-203-11-49, E-mail: ekspert-2312@mail.ru., new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig`i: Ashurov Behzodbek Orifjon O‘g‘li

2026 - yil 14 - martdagi 275738 - sonli

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

Obyekt nomi: Andijon shahar, G’ayrat MFY hududida 12 qavatli 1-2-qavati savdo va maishiy xizmat yuqori qavatlari turar-joy majmuasi bino-inshootlari qurilishi.
Buyurtmachi: “MARIN BUSINESS TRADE” MChJ
Bosh loyihachi: "PERFECT CONSULT" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai: Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi: “MARIN BUSINESS TRADE” MChJ
Qurilish turi: Yangi qurilish
Murojaat raqami: 111378

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Andijon shahar qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi bo`limining 31.10.2025-yildagi № 226226585-sonli ruhsatnomasi.

1.2. Andijon viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi bosh boshqarmasi tomonidan 07.01.2026-yilda berilgan №1703-1703401-251623-son Arxitektura-rejalashtirish topshirig’i.

1.3. Buyurtmachi “MARIN BUSINESS TRADE” MChJ tomonidan tasdiqlangan va bosh loyihachi “PERFECT CONSULT” MChJ bilan kelishilgan loyixalashtirish topshirig'i.

1.4. Buyurtmachi “MARIN BUSINESS TRADE” MChJ hamda bosh loyiha tashkiloti o`rtasida loyiha-tadqiqot ishlari uchun tuzilgan 20.09.2022-yildagi №12-sonli shartnoma.

1.5. Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi bosh boshqarmasi Arxitektura va shaxarsozlik kengashi ishchi organining 13.01.2026-yildagi №243646684-sonli xulosasi.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyixaning tarkibiy qismlarining ro'yxatiga muvofiq ishchi loyixa bosqichida to'liq loyixa xujjatlari.

2.2. Loyixa tarkibidagi umumiy tushuntirish yozuvi.

2.3. Muxandislik geologik qidiruv ishlari “O’ZGASHKLITI” MChJ tomonidan 2025-yilda bajarilgan xulosa.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Qurilish maydoni tafsilotlari:

Tashqi xavoning minus 14 C li qurilish tumani;

Qordan tushadigan yuk -50 kg/mI;
Shamolning ta'sir kuchi -38 kg/mI;
Yozgi xisobiy xavoning issiqlik xarorati +33 C;
Maydon seysmikligi 8-balli.

3.2. Bosh reja:

Andijon shahri xududida ilova etilgan bosh reja asosida “12 qavatli, 1-2-qavati savdo va maishiy xizmat, yuqori qavatlari turar-joy majmuasi bino-inshootlari qurilishi” Andijon shahar, G’ayrat MFY hududida joylashgan. Qurilish maydoni uchun Andijon shahar qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi bo`limining 31.10.2025-yildagi №226226585-sonli ruhsatnomasiga asosan yer maydoni qurilish ishlari uchun ruxsat berilgan. Loyihalashtirish uchun tanlangan yer maydoni quyidagicha chegaralangan: shimol tomondan — avtomobil yo‘li bilan chegaralangan, sharq tomondan — qo‘shni hudud bilan chegaralangan, janub tomondan — bog’ hududi bilan chegaralangan, g’arb tomondan — avtomobil yo‘li bilan chegaralangan. Bosh rejada loyihaviy 12 qavatli, 2 qavatli yerosti avtoturargohiga ega 5 dona – A1, B1, C1, D1 va E1 blok turar-joy binolari, soyabon va bolalar maydonchasi joylashgan. Turar joy majmuasinining hovli qismi yer osti qismida qo’shimcha ikki qavatli yer osti avtoturargohi joylashgan. Bosh reja rel`ef va mavjud kommunikatsiyalarni hisobga olgan xolda ishlab chiqilgan. Obodonlashtirish ishlarida loyihaviy bino atrofi va oldi hududda bruschatka qoplama yotqizish ishlari, maysa o’stirish ishlari, irrigatsiya tarmoqlari, avtomobillar o’tish joylarida asbestsement quvurlar yotqizish, chiqindi idishlari va o’rindiqlar ko’zda tutilgan. Shuningdek ikkinchi bosqichda tashqi muhandislik tarmoqlari va 2 konturli qozonlarni gazlashtirish ko’zda tutilgan.

3.3. Me'moriy va konstruktiv yechimlari:

Loyihalanayotgan “12 qavatli turar joy” binolari – 5 dona blokdan iborat bo’lib, ja’mi 338 dona xonadon joylashgan.

Loyihaviy “12 qavatli turar joy (A1 blok)” binosi – o’n ikki qavatli, 2 qavatli yerosti avtoturargoh qavatiga ega, 1 va 2-qavatlari savdo-maishiy do’konlaridan iborat bo’lib, to’g’ri to`rtburchak shaklida umumiy o`lchami 33.60x20.00 m. Bino -2 yerosti avtoturargoh qavati poldan shiftgacha bo’lgan balandligi 3.11 m, -1 yerosti avtoturargoh qavati poldan shiftgacha bo’lgan balandligi 3.96 m, birinchi qavat poldan shiftgacha bo’lgan balandligi 4.00 m, ikkinchi qavat poldan shiftgacha bo’lgan balandligi 4.00 m, yuqori qavatlarning poldan shiftgacha bo`lgan balandligi 3.06 m.

Yerosti -1 va -2 qavatlarida avtoturargoh sifatida foydalanish uchun re’jalashtirilgan bo’lib, har ikkala qavatga tushish uchun zinapoya va 1 dona yo’lovchi hamda 1 dona yong’in-qutqaruv lifti ko’zda tutilgan. -1 yer osti qavatida evakuatsiya chiqish eshiklari ko’zda tutilgan. Qo’shimcha sifatida – 2 qavatida elektroshit va nasos xonalari ham joylashgan.

Bino birinchi va ikkinchi qavatlarida savdo do’konlari joylashgan, savdo zallarida ikkinchi qavatga chiqish uchun 2 dona zinapoya joylashgan. Har bir savdo zalida bir ochkoli xojatxona joy olgan.

Uchinchi qavatda ikki dona 3 xonali, besh dona 2 xonali xonadon joylashgan. Shuningdek to’rt dona xonadonda terrasa ko’zda tutilgan.

4-11-qavatlarning har birida ikki dona 3 xonali, besh dona 2 xonali xonadon joylashgan bo’lib, ja’mi mazkur 4-11-qavatlarda 56 dona xonadon joylashgan.

12-qavat – penthaus uslubidagi qavatda 4 xonali, terrasaga ega ikki dona xonadon re’jalashtirilgan.
Xonadonlarda yotoqxona, bolalar yotoqxonasi, mehmonxona, oshxona, garderob, xojatxona, kirish va balkon ko’zda tutilgan.
Texnik-iqtisodiy ko’rsatkichlari:
Qurilish maydoni – 693.60 m2;
Umumiy maydoni – 8 457.20 m2;
Yashash maydoni – 1 994.60 m2;
Qurilish hajmi – 32 788.50 m3.
Loyihaviy “12 qavatli turar joy (B1 blok)” binosi – o’n ikki qavatli, 2 qavatli yerosti avtoturargoh qavatiga ega, 1 va 2-qavatlari savdo-maishiy do’konlaridan iborat bo’lib, to’g’ri to`rtburchak shaklida umumiy o`lchami 23.60x30.80 m. Bino -2 yerosti avtoturargoh qavati poldan shiftgacha bo’lgan balandligi 3.11 m, -1 yerosti avtoturargoh qavati poldan shiftgacha bo’lgan balandligi 3.96 m, birinchi qavat poldan shiftgacha bo’lgan balandligi 4.00 m, ikkinchi qavat poldan shiftgacha bo’lgan balandligi 4.00 m, yuqori qavatlarning poldan shiftgacha bo`lgan balandligi 3.06 m.
Yerosti -1 va -2 qavatlarida avtoturargoh sifatida foydalanish uchun re’jalashtirilgan bo’lib, har ikkala qavatga tushish uchun zinapoya va 1 dona yo’lovchi hamda 1 dona yong’in-qutqaruv lifti ko’zda tutilgan. -1 yer osti qavatida evakuatsiya chiqish eshiklari ko’zda tutilgan. Qo’shimcha sifatida – 2 qavatida elektroshit va nasos xonalari ham joylashgan.
Bino birinchi va ikkinchi qavatlarida savdo do’konlari joylashgan, savdo zallarida ikkinchi qavatga chiqish uchun 2 dona zinapoya joylashgan. Har bir savdo zalida bir ochkoli xojatxona joy olgan.
Uchinchi qavatda ikki dona 3 xonali, to’rt dona 2 xonali xonadon joylashgan. Shuningdek mazkur qavatdagi xonadonlardan terrasaga chiqish ko’zda tutilgan.
4-11-qavatlarning har birida ikki dona 3 xonali, to’rt dona 2 xonali xonadon joylashgan bo’lib, ja’mi mazkur 4-11-qavatlarida 48 dona xonadon joylashgan.
12-qavat – penthaus uslubidagi qavatda ikki dona 4 xonali va bir dona 2 xonali terrasaga ega uch dona xonadon re’jalashtirilgan.
Xonadonlarda yotoqxona, bolalar yotoqxonasi, mehmonxona, oshxona, garderob, xojatxona, kirish va balkon ko’zda tutilgan.
Texnik-iqtisodiy ko’rsatkichlari:
Qurilish maydoni – 711.40 m2;
Umumiy maydoni – 8 176.30 m2;
Yashash maydoni – 1622.00 m2;
Qurilish hajmi – 31 872.60 m3.
Loyihaviy “12 qavatli turar joy (C1 blok)” binosi – o’n ikki qavatli, 2 qavatli yerosti avtoturargoh qavatiga ega, 1 va 2-qavatlari savdo-maishiy do’konlaridan iborat bo’lib, to’g’ri to`rtburchak shaklida umumiy o`lchami 54.40x20.00 m. Bino -2 yerosti avtoturargoh qavati poldan shiftgacha bo’lgan balandligi 3.11 m, -1 yerosti avtoturargoh qavati poldan shiftgacha bo’lgan balandligi 3.96 m, birinchi qavat poldan shiftgacha bo’lgan balandligi 4.00 m, ikkinchi qavat poldan shiftgacha bo’lgan balandligi 4.00 m, yuqori qavatlarning poldan shiftgacha bo`lgan balandligi 3.06 m.

Binoda ikki dona kirish qismi bo’lib, har bir kirish qismida bir dona zinapoya, yo’lovchi va yong’in-qutqaruv liftlari o’rin olgan.
Yerosti -1 va -2 qavatlarida avtoturargoh sifatida foydalanish uchun re’jalashtirilgan bo’lib, har ikkala qavatga tushish uchun zinapoya va 1 dona yo’lovchi hamda 1 dona yong’in-qutqaruv lifti ko’zda tutilgan. -1 yer osti qavatida evakuatsiya chiqish eshiklari ko’zda tutilgan. Qo’shimcha sifatida – 2 qavatida elektroshit va nasos xonalari ham joylashgan.
Bino birinchi va ikkinchi qavatlarida savdo do’konlari joylashgan, savdo zallarida ikkinchi qavatga chiqish uchun 2 dona zinapoya joylashgan. Har bir savdo zalida bir ochkoli xojatxona joy olgan.
Uchinchi qavatda to’rt dona 3 xonali, olti dona 2 xonali xonadon joylashgan. Shuningdek olti dona xonadonda terrasa ko’zda tutilgan.
4-11-qavatlarning har birida to’rt dona 3 xonali, olti dona 2 xonali xonadon joylashgan bo’lib, ja’mi mazkur 4-11-qavatlarda 80 dona xonadon joylashgan.
12-qavat – penthaus uslubidagi qavatda 5 xonali, terrasaga ega to’rt dona xonadon re’jalashtirilgan.
Xonadonlarda yotoqxona, bolalar yotoqxonasi, mehmonxona, oshxona, garderob, xojatxona, kirish va balkon ko’zda tutilgan.
Texnik-iqtisodiy ko’rsatkichlari:
Qurilish maydoni – 1 170.00 m2;
Umumiy maydoni – 12 742.70 m2;
Yashash maydoni – 2 899.80 m2;
Qurilish hajmi – 41 854.80 m3.
Loyihaviy “12 qavatli turar joy (D1 blok)” binosi – o’n ikki qavatli, 2 qavatli yerosti avtoturargoh qavatiga ega, 1 va 2-qavatlari savdo-maishiy do’konlaridan iborat bo’lib, to’g’ri to`rtburchak shaklida umumiy o`lchami 23.60x30.80 m. Bino -2 yerosti avtoturargoh qavati poldan shiftgacha bo’lgan balandligi 3.11 m, -1 yerosti avtoturargoh qavati poldan shiftgacha bo’lgan balandligi 3.96 m, birinchi qavat poldan shiftgacha bo’lgan balandligi 4.00 m, ikkinchi qavat poldan shiftgacha bo’lgan balandligi 4.00 m, yuqori qavatlarning poldan shiftgacha bo`lgan balandligi 3.06 m.
Yerosti -1 va -2 qavatlarida avtoturargoh sifatida foydalanish uchun re’jalashtirilgan bo’lib, har ikkala qavatga tushish uchun zinapoya va 1 dona yo’lovchi hamda 1 dona yong’in-qutqaruv lifti ko’zda tutilgan. -1 yer osti qavatida evakuatsiya chiqish eshiklari ko’zda tutilgan. Qo’shimcha sifatida – 2 qavatida elektroshit va nasos xonalari ham joylashgan.
Bino birinchi va ikkinchi qavatlarida savdo do’konlari joylashgan, savdo zallarida ikkinchi qavatga chiqish uchun 2 dona zinapoya joylashgan. Har bir savdo zalida bir ochkoli xojatxona joy olgan.
Uchinchi qavatda ikki dona 3 xonali, to’rt dona 2 xonali xonadon joylashgan. Shuningdek mazkur qavatdagi xonadonlardan terrasaga chiqish ko’zda tutilgan.
4-11-qavatlarning har birida ikki dona 3 xonali, to’rt dona 2 xonali xonadon joylashgan bo’lib, ja’mi mazkur 4-11-qavatlarida 48 dona xonadon joylashgan.
12-qavat – penthaus uslubidagi qavatda ikki dona 4 xonali va bir dona 2 xonali terrasaga ega uch dona xonadon re’jalashtirilgan.
Xonadonlarda yotoqxona, bolalar yotoqxonasi, mehmonxona, oshxona, garderob, xojatxona, kirish va balkon ko’zda tutilgan.

Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari:
Qurilish maydoni – 711.40 m2;
Umumiy maydoni – 8 176.30 m2;
Yashash maydoni – 1622.00 m2;
Qurilish hajmi – 31 872.60 m3.

Loyihaviy "12 qavatli turar joy (E1 blok)" binosi – o'n ikki qavatli, 2 qavatli yerosti avtoturargoh qavatiga ega, 1 va 2-qavatlari savdo-maishiy do'konlaridan iborat bo'lib, to'g'ri to`rtburchak shaklida umumiy o`lchami 33.60x20.00 m. Bino -2 yerosti avtoturargoh qavati poldan shiftgacha bo'lgan balandligi 3.11 m, -1 yerosti avtoturargoh qavati poldan shiftgacha bo'lgan balandligi 3.96 m, birinchi qavat poldan shiftgacha bo'lgan balandligi 4.00 m, ikkinchi qavat poldan shiftgacha bo'lgan balandligi 4.00 m, yuqori qavatlarning poldan shiftgacha bo`lgan balandligi 3.06 m.

Yerosti -1 va -2 qavatlarida avtoturargoh sifatida foydalanish uchun re'jalashtirilgan bo'lib, har ikkala qavatga tushish uchun zinapoya va 1 dona yo'lovchi hamda 1 dona yong'in-qutqaruv lifti ko'zda tutilgan. -1 yer osti qavatida evakuatsiya chiqish eshiklari ko'zda tutilgan. Qo'shimcha sifatida – 2 qavatida elektroshit va nasos xonalari ham joylashgan.

Bino birinchi va ikkinchi qavatlarida savdo do'konlari joylashgan, savdo zallarida ikkinchi qavatga chiqish uchun 2 dona zinapoya joylashgan. Har bir savdo zalida bir ochkoli xojatxona joy olgan.

Uchinchi qavatda ikki dona 3 xonali, besh dona 2 xonali xonadon joylashgan. Shuningdek to'rt dona xonadonda terrasa ko'zda tutilgan.

4-11-qavatlarning har birida ikki dona 3 xonali, besh dona 2 xonali xonadon joylashgan bo'lib, ja'mi mazkur 4-11-qavatlarda 56 dona xonadon joylashgan.

12-qavat – penthaus uslubidagi qavatda 4 xonali, terrasaga ega ikki dona xonadon re'jalashtirilgan.

Xonadonlarda yotoqxona, bolalar yotoqxonasi, mehmonxona, oshxona, garderob, xojatxona, kirish va balkon ko'zda tutilgan.

Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari:
Qurilish maydoni – 693.60 m2;
Umumiy maydoni – 8 457.20 m2;
Yashash maydoni – 1 994.60 m2;
Qurilish hajmi – 32 788.50 m3.

A1, B1, C1, D1 va E1 bloklar uchun umumiy ko'rsatkichlar:
Ichki pardozlash ishlari - tayyor xolda topshirish shartisiz, xonadonlarni pardevor bilan xonalarga bo'linadi.
Ichki eshiklarsiz amalga oshirilishi ko'zda tutilib, elektr yoritkichlarsiz,
isitish va shamollatish tizimlari inventarlarsiz(radiator, moyka, elektr suv isitgichlarsiz, umivalnik va unitazlarsiz) bajariladi.
Zinalar va xonadonlarga kirish qismi (podeyzd) pardozlash ishlari to'liq bitkazilib,
devor xamda shiftlar sement qorishmali «travertin» suvoq qilinadi, liftlar o'rnatiladi.
Yerto'la qavatda - pollar tekislangan beton to'shama, devor va shiftlar quruq gips qorishmasida tekisladi. Zinalar va xoll qismida devor xamda shiftlar sement qorishmali «travertin» suvoq qilinadi.
Derazalar – PVX plastmassa materiallardan tayyorlangan bo'lib, 2 qavatli energiya

tejamkor. Deraza tokchalari-ichki tomonga PVXdan, tashqi tomonga po’lat rux tunikadan qoplanadi. Eshiklar- yo’laklarga (podyezga) kirish tashqi eshiklar metaldan, xonadonlarga kirish eshiklari metaldan o’rnatiladi. Ichki eshiklar xisobga olinmagan. Yerto’la qavatda metal eshik o’rnatish kerak. Barcha oyna va eshik yon bag’irlari sement qorishma bilan suvoq qilinadi.

Pollar – yerto’lada beton, zinapoya maydonlari va qadamlari hamda xoll qismida sopol plitka qoplamasi bilan qoplanadi.

Tashqi pardozlash ishlari - binoning fasadi tashqi tomonidan bazalt tolali ekstruziyalangan penopolistirol plitalari bilan qoplanib va tashqi ko’rinishini metal karkas asosida «keramogranit» qoplash, sokol «keramogranit» plitka bilan pardozlash ko’zda tutilgan.

Binoning konstruktiv yechimlari qattiq konstruktiv sxema asosida qabul qilindi.

Quyma temirbeton karkas. Binoning konstruktiv tizimi mustahkam karkas tizimidir. GOST 22266-94 bo'yicha sulfatga chidamli sementlar asosida B30 sinfidagi og'ir betondan yasalgan, qalinligi 1400 mm bo'lgan quyma temirbeton poydevor plitasi. Podval devorlari - GOST 22266-94 bo'yicha sulfatga chidamli sementlar bo'yicha B30 sinfidagi og'ir betondan yasalgan 400 mm qalinlikdagi quyma temirbeton(faqat perimetr devorlari uchun). GOST 10178-85* bo'yicha Portland sementida B30 sinfidagi og'ir betondan yasalgan, 550x400(h), 500x500(h) va 400x400(h) o'lchamdagi quyma nurlar. Quyma ustunlar - GOST 22266-94 bo'yicha sulfatga chidamli sementlar ustida B30 sinfidagi og'ir betondan yasalgan 600x600 mm va 500x500 mm o'lchamdagi ko'ndalang kesimlar(faqat perimetr ustunlari uchun). Pol va tom plitalari - GOST 10178-85* bo'yicha Portland sementida B30 sinfidagi og'ir betondan tayyorlangan, qalinligi 200 mm va 160 mm bo'lgan quyma temirbeton. Qattiqlashtiruvchi diafragmalar - GOST 10178-85* bo'yicha Portland sementida B30 sinfidagi og'ir betondan tayyorlangan, qalinligi 400 mm va 300 mm bo'lgan quyma temir-beton. Lift shaftlari - GOST 10178-85* bo'yicha Portland sementida B30 sinfidagi og'ir betondan tayyorlangan, qalinligi 300 mm bo'lgan quyma temirbeton. GOST 10178-85* bo'yicha Portland sementida B30 sinfidagi og'ir betondan yasalgan quyma temirbeton zinapoyalar.

Loyihaviy “Qo’shimcha yer osti avtoturargohi” – 2 qavatli, to’g’ri to`rtburchak shaklida, umumiy o`lchami 60.80x43.60 m. Qo’shimcha yer osti avtoturargohi turar joy majmuasi hovli qismi ostki qavatlarida joylashgan. Bino -2 yerosti avtoturargoh qavati poldan shiftgacha bo’lgan balandligi 3.11 m, -1 yerosti avtoturargoh qavati poldan shiftgacha bo’lgan balandligi 2.95 m.

Yerosti avtoturargohiga avtomobil kirishi va chiqishi uchun 4 dona rampa ko’zda tutilgan. Yong’in tarqalmasligi uchun yong’inga qarshi EI 60 pardalar ko’zda tutilgan.

Yor osti avtoturargohi pol qismida yog’ingarchilik suvlarini tashqariga olib chiqish uchun irrigatsiya ariqlari re’jalashtirilgan.

Texnik-iqtisodiy ko’rsatkichlari:

Qurilish maydoni – 2 692.80 m2;

Umumiy maydoni – 4 957.63 m2;

Qurilish hajmi – 20 492.21 m3.

Shu bilan birga, ishchi loyiha-smeta hujjatlarida muhandislik tarmoqlari va nogironligi bo`lgan shaxslar uchun maxsus ishlarni bajarish ko'zda tutilgan.

Ishchi loyihada - *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-sentabrdagi PF-220-son Farmoni talablari bo`yicha:*

- Issiq suv ta’minoti manbai xonalardagi 2 konturli qozonlardan va quyoshli issiq suv kollektorlaridan amalga oshiriladi.
- Energiya samaradorlikni ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlarni nazarda tutilgan va ob’ekt energiya resurslarini zamonaviy “aqlli” o‘lchash moslamalari bilan jihozlanishi bo‘yicha talablar ko‘zda tutilgan.
- Binoda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ya`ni quyosh panellari o`rnatish ko‘zda tutilgan.
- Binoda issiqlikni saqlash uchun binoning tashqi fasad qismi 50 qalinlikda mineral vata(bazalt) qoplash ko`zda tutilgan;
- Tom issiqlik qatlami - ekstruziyalangan penopolistiroldan, 100 mm qalinlikda;
- Pol izolyatsiyasi – ekstruziyalangan penopolistiroldan, 30 mm qalinlikda issiqlik himoya qatlami yotqiziladi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda keksalar uchun qurilish ob’yektlari O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi PQ-266 sonli qarori talablari bo`yicha:

- nogironlar uchun to`xtash joyi avtoturargoh tashkil qilish va maxsus belgilar o`rnatish;
- hududda ogohlantiruvchi va yo`naltiruvchi taktil qoplama qoplash;
- binoning kirish qismida me`yoriy qiyalikka ega bo`lgan pandus tutqichlar bilan rejalashtirish;
- bino yo’laklarida ogohlantiruvchi va yo`naltiruvchi taktil qoplamalar qoplandi;
- birinchi qavatda joylashgan savdo zallarida nogironligi bo’lgan shaxslar uchun maxsus xojatxonalar re’jalashtirildi;
- sirpanishga qarshi alyumin pol profili;
- eshiklar chekkasiga kontrast rangli lentalar re’jalashtirildi;
- kirish eshigidagi kontrast belgi, sariq doira d=200mm;
- brayl alifbosidagi taktil axborot yozuvlari;
- savdo zallarida yuqori qavatga ko’tarilish uchun ko’tarish mosalamasi hamda turar joyning yuqori qavatlariga ko’tarilish uchun lift va ko’plab qo’shimcha belgilar ko’zda tutilgan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Obyektni muhandislik kommunikatsiyalari bilan ta'minlash Andijon viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi bosh boshqarmasi tomonidan 07.01.2026-yilda berilgan №1703-1703401-251623-son Arxitektura-rejalashtirish topshirig’iga muvofiq hal qilinadi:

- Ichimlik suv ta'minoti “Andijon suv ta`minoti” AJ Andijon shahar filiali tomonidan 02.07.2025-yilda berilgan №104-sonli texnik shartiga muvofiq;
- Elektr ta'minoti “O’zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ tomonidan 28.01.2026-yilda berilgan №01-02-22/-sonli texnik xatiga muvofiq xal qilinadi.

Issiqlik tizimi va shamollatish tizimi:

A1, B1, C1, D1 va E1 bloklar binolarini isitish xar bir xonadonda joylashgan 2 konturli qozonlardan amalga oshiriladi. Isitish sistemasi bir quvurli gorizontal qabul qilingan. Isitish uskunalari sifatida alyumin radiatorlar qabul qilingan. Shamollatish tabiiy va mexanik yo‘l bilan bajariladi. Toza havo xonalarga deraza, eshiklar orqali amalga oshiriladi.

Ichimlik suvi va oqova suvi tizimi:

A1, B1, C1, D1 va E1 bloklar binolariga xo‘jalik-ichimlik, oqava suvi, issiq suv ta’minoti va yong‘inga qarshi tarmoqlari loyihalangan bo‘lib, tarmoqlar turli xil diametrdagi polipropilen, plastmassa quvurlardan tashkil topgan. Issiq suv ta’minoti manbai xonalardagi 2 konturli qozonlardan va quyoshli issiq suv kollektorlaridan amalga oshiriladi. Oqova suv tarmog‘i polietilen quvurlardan loyihalangan.

Elektr taminoti:

Turar-joy binosining elektrotexnik qismi loyihasi PUE, QMQ 2.01.05-2024, QMQ 2.04.17-2024 talablariga hamda loyihaning arxitektura qismi asosida ishlab chiqilgan.

Tarmoq kuchlanishi: ~380/220 V;

Elektr ta’minoti kategoriyasi: II;

Turar-joy qismini elektr energiyasi bilan ta’minlash uchun elektroshitxonada o‘rnatiladigan VRU turidagi kirish-taqsimlash qurilmasi VRU1-21-13 UXL4 nazarda tutilgan. Elektr ta’minoti tashqi tarmoqdan kabel kirishlari orqali amalga oshiriladi. Barcha elektr tarmoqlari ortiqcha yuklama va qisqa tutashuv toklaridan himoya qilingan.

Kvartiraga tushadigan yuklama QMQ 2.04.17-2024 ning 2-jadvali bo‘yicha maxsus yuklamalar hisobidan, kvartiralar umumiy maydonini hisobga olgan holda va maishiy konditsionerlarni ulashni inobatga olgan holda aniqlangan.

Energiyatejamkorlik:

Har bir bino tom qismida quvvati 10 kVt bo’lgan ja’mi 50 kVt quyosh fotoelektr stansiyasi o’rnatish ko’zda tutilgan.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi bosh boshqarmasi Arxitektura va shaxarsozlik kengashi ishchi organining 13.01.2026-yildagi №243646684-sonli xulosasi.

5.2. Davlat ekologik ekspertizasi markazi Andijon viloyati filiali tomonidan 2026-yil 3-mart kungi №01-02/03-7544-sonli davlat ekologik ekspertiza xulosasi.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **258 582 502 006** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati **14 415 086 402** so'mga kamaytirilib,

244 167 415 604 so‘mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **205 190 642 268** so'm

Asbob-uskunalar: **12 815 978 807** so'm

QQS: **26 160 794 529** so'm

6.1. Loyiha-smeta hujjatlari ekspertizaga buyurtmachining e’tirozlarisiz taqdim qilindi.

6.2. Ishchi loyixaga asosan qurilish montaj ishlarining yakuniy xarajatlari buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, xaqiqiy(ijro xujjatlari) nazorat natijalari asosida aniqlanadi.

6.3. Ekpertizaga oid ko‘rib chiqish jarayonida ishchi loyihaning bo'limlari yuzasidan berilgan e'tiroz va kamchilliklarni to'liq bartaraf etish lozim. Ekspert mutahassislar tomonidan ko`rsatilgan bandlar buyurtmachi va loyiha tashkiloti tomonidan to`liq bajarilmagan taqdirda ushbu ekspertiza xulosasi o`z kuchini yo`qotgan deb xisoblanadi:

- avtoturargohlarda mashina-joylari sonining belgilangan normalarga yetkazgan holda tashkil etish buyurtmachining 2026-yil 2-martdagi №165-son ijara shartnomasiga asosan buyurtmachi zimmasiga yuklatiladi;

- tashqi muhandislik tarmoqlari bo’limlari hamda binoni 2 konturli qozonlarni gazlashtirish yuzasidan buyurtmachining 03.03.2026-yildagi №7-sonli kafolat xatiga asosan buyurtmachi zimmasiga yuklatiladi.

6.4. Ushbu ekspertiza xulosasida pudratchining boshqa harajatlari, obyektning hududda joylashgan o`rni va oraliq masofasi bo`yicha “Shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish Respublika markazi” DM Andijon viloyati hududiy boshqarmasi majburiyatni o’z zimmasiga olmaydi. Vaholanki, Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi bosh boshqarmasi Arxitektura va shaxarsozlik kengashi ishchi organining 13.01.2026-yildagi №243646684-sonli xulosasida obyektning hududda joylashgan o`rni va oraliq masofasi bo`yicha mutasaddi tashkilotlar bilan kelishilgan.

6.5. Buyurtmachi loyixaviy xujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar, shu jumladan, O'zbekiston Nogironlar jamiyati Andijon viloyat bo'limi bilan kelishish lozim.

6.6. O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligining 2019-yil 19-avgustdagi 396-buyrug'i (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 9-sentabrda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3180) bilan tasdiqlangan “Loyiha-tadqiqot ishlarining qiymatini aniqlash tartibi to'g'risidagi” Nizomning 4-bandiga asosan loyixa tashkiloti tomonidan qurilish ustidan mualliflik nazoratini o'tkazishda, loyixalarni ishlanma boshlanishidan amalga tadbiq etilishining oxirigacha olib boriladigan texnikaviy kuzatuvini amalga oshirishda ishtirok etadi.

6.7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-sonli qarori 1-ilova, III-bob, 29-bandiga asosan ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning xaqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi va loyiha tashkiloti javobgardir.

6.8. Nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda keksalar uchun qurilish obyektlari O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi PQ-266 sonli qarori bilan bir vaqtda ShNQ 2.01.02-04, ShNQ 2.04.09-21, ShNQ 2.07.01-23, ShNQ 2.08.01-24, ShNQ 2.08.02-23, ShNQ 2.08.04-24, ShNQ 2.07.02-24 hamda ShNQ 2.08.07-22 talablarini hisobga olgan holda, loyihalashtirish topshirig‘iga asosan talablarga to`liq amal qilinsin.

6.9. Taqdim etilgan umumiy miqdori buyurtmachining boshqa harajatlarisiz va 12% QQS bilan 258 582 502 006 so'mni tashkil qilgan. Ekspertiza ko'rigidan so`ng 14 415 086 402 so'm qurilish mashina-mexanizm va ba’zi ashyolar qiymati xisobidan iqtisod qilindi.

7. Xulosalar.

7.1. Ishchi loyiha bo`yicha Andijon shahar, G’ayrat MFY hududida 12 qavatli 1-2-qavati savdo va maishiy xizmat yuqori qavatlari turar-joy majmuasi bino-inshootlari qurilishi, taqdim etilgan quyidagi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan tasdiqlash uchun tavsiya qilinadi:

Qurilish maydoni	- 6 672.80 m;
Umumiy maydon	- 50 967.33 m;
Yashash maydoni	- 10 133.00 m;
Qurilish hajmi	- 191 669.21 m;
Me'yoriy mehnat sarfi	- 22 882.41 odam/soat;
Joriy narxdagi tavsiyaviy (boshlang'ich) miqdori 12% QQS bilan	- 244 167 415 604 so'm.

(Buyurtmachining boshqa harajatlarisiz)

7.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 11-iyundagi 261-sonli qarori va ShNQ 4.01.16-09 me'yorlariga muvofiq tanlov savdolarini o`tkazish uchun ob'ektning qiymati buyurtmachi tomondan belgilanadi. Tasdiqlash uchun tavsiya etilgan ta'mirlash va qurilish ishlari narxi boshlang`ich xisoblanib, asosiy qarorni buyurtmachi va bosh pudrat korhonasi tomonidan shartnomaviy munosabatlar orqali amalga oshiriladi.

7.3. ShNQ 1.03.06-13da “Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaxarsozlik xujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma'lumotlarni loyixalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligi bo`yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyiha qarorlari bo'yicha) yuklatiladi”.

7.4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17-sentabr 2021-yildagi №579-sonli qarorining 5-bob, 36-bandida shaharsozlik xujjatlari bo’yicha ekspert tashkilotlar tomonidan berilgan ekspertiza xulosasining amal qilish muddati 2 yil etib belgilangan!

Ishtirokchi ekspertlar: Egamov Javlon Naimjanovich, Abdurashidov Miryusup Kobulovich, Umarov Ravshan Maxamadjonovich, Shakurov Rafael Faxrazeyevich, Madmarov Baxtiyor Baxodirovich, Nazarkasimova Feruza Muxamadaliyevna, Soliyev Joxongir Maripjon O‘g‘li

Bosh ekspert **SOLIYEV JOXONGIR MARIPJON O‘G‘LI**